



## TEATR PEDAGOGIKASI VOSITASI ORQALI BO'LAJAK FILOLOG O'QITUVCISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK MODELI

*Sh.O. Maxkamova*

*Namangan davlat pedagogika instituti  
tayanch doktoranti*

*Annotasiya* Mazkur maqola teatr pedagogikasining imkoniyatlaridan foydalangan holda bo'lajak filolog o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda teatr texnologiyalarining ta'lif jarayonidagi o'rni, ularning ta'lifiy va tarbiyaviy samaradorligi, shuningdek, didaktik model asosida amalga oshiriladigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** Teatr pedagogikasi, filolog o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, ijodiy rivojlanish, Kommunikativ ko'nigmalar

### ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ- ФИЛОГА СРЕДСТВАМИ ТЕАТРАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИКИ

**Аннотация** В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности будущих учителей-филологов на этапе развития театральной педагогики. В нем рассмотрена роль театральных технологий в образовательном процессе, идентификация документов образования и воспитательных процессов, реализация на основе дидактической модели и анализ педагогических процессов.

**Ключевые слова:** Театральная педагогика, педагог-филолог, профессиональная компетентность, творческое производство, коммуникативное развитие.

### DIDACTIC MODEL OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE PHILOGIST TEACHER THROUGH THE MEANS OF THEATER PEDAGOGY

**Abstract** The article examines the development of professional competence of future teachers of philology at the stage of development of theatrical pedagogy. It examines the role of theatrical technologies in the educational process, identification of educational documents and educational processes, implementation based on a didactic model and analysis of pedagogical processes.

**Keywords:** Theatre pedagogy, teacher-philologist, professional competence, creative production, communicative development.



## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lif sifatini oshirishga bo'lgan e'tibor yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol inson qilib kamol toptirish jamiyatimizning ustuvor vazifalaridandir. Bu borada kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda teatr san'atining o'rni beqiyos. Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Uning samarali rivoji uzluksiz ravishda ta'lif sohasiga singib borayotgan islohotlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyatda ta'lif tizimida bo'lajak filolog o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Xususan, filolog mutaxassislar o'z kasbining mohir ustasi bo'lib yetishishi uchun nutqiy va lingvistik malakalar bilan bir qatorda pedagogik ko'nikmalarini kuchaytirishi talab etiladi. Ushbu jarayonda teatr pedagogikasidan foydalanish natijaviy usul sifatida e'tirof etiladi. Zamonaviy ta'lif tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan teatr pedagogikasi o'zining ijodiy va amaliy ahamiyati bilan talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. madaniyatini shakllantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi. Bo'lajak filolog o'qituvchisi uchun teatr pedagogikasining ta'lif jarayoniga integratsiyalashuvi o'quvchilar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirish, nutq madaniyatini shakllantirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish. Teatr pedagogikasi vositasi orqali bo'lajak filolog o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan rus pedagog olimlari Bogomolova N.B. "Teatr pedagogikasi va tarbiya jarayoni" nomli asarida teatr pedagogikasining asosiy tamoyillari, uning ta'lif jarayonidagi qo'llanilishi va pedagogik kompetensiyanı rivojlantirishdagi



ahamiyatini tahlil qiladi. Stanislavskiy K.S. "San'atdagi hayotim" nomli kitobida tizimining asosiy g'oyalari teatr pedagogikasi asoslarini shakllantiradi. Ushbu manba orqali o'qituvchi aktyorlik san'ati va ijodiy faoliyatni pedagogik jarayonga integratsiya qilish usullarini o'rganishi mumkin deb asoslaydi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilan Shayxzoda M. "O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi: muammolar va yechimlar" maqolasida kasbiy kompetensianing tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish uchun teatr texnikalarining qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar berib o'tgan Tursunova D. "Filologik ta'limdi ijodiy metodlarni qo'llash" nomli izlanishlarida filolog o'qituvchilar uchun ijodiy yondashuvlar, jumladan, teatr vositalaridan foydalanish orqali talabalarda til va adabiyotga qiziqishni oshirish usullarini tavsiyan ishlab chiqan.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Hozirgi kunda insonning umumiyligi madaniy darajasiga, ijtimoiy adaptatsiyasiga va kasbiy jarayonida o'sishiga erishish ehtiyojlariga qaratilgan talab va takliflar tobora ko'payib bormoqda. Shu sababli, filologiyada til madaniyati tayyorgarligini ularning bo'lg'usidagi kasbiy faoliyatiga yo'naltirish dolzarb masala sanaladi. Ilm va madaniyat o'rtasidagi umumiyligi hamkorlik til va pedagogikaning har xil guruhlari orasida samarali muloqotga ega mutaxassislarni yetishtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu maqsadda teatr pedagogikasining didaktik maqsadlari sifatida quyidagilarni ayta olamiz:

- Shaxsni ijtimoiylashuv jarayoniga tayyorlash;
- Empatiya va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- Tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish.

Teatr pedagogikasi vositasi orqali bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy imkoniyatlari va iqtidorini ochib berish, ularni o'ziga ishongan va mustaqil fikrlay oladigan shaxsga aylantirishga yordam beradi. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida teatrda rollarni ijro etish, sahnalashtirish jarayoni talabalarning ijodkorlik salohiyatini kuchaytiradi. Bu esa, o'z navbatida, boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham o'z aksini topadi.



Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish: teatr pedagogikasi dialog va muloqot jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu esa o'quvchilarni samarali aloqa qilishga, o'z fikrini to'g'ri va aniq ifodalashga o'rgatadi.

Jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish: teatr faoliyati jamoaviy ishni talab qiladi. Bu jarayon talabalarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga, birlgilikda maqsadga erishishga yordam beradi. Estetik didni shakllantirish: teatr elementlari orqali o'quvchilarni san'atni tushunish, baholash va qadrlashga o'rgatish. Teatr pedagogikasining amaliyotdagi qo'llanishi ta'lism-tarbiya jarayonini jonlantirishga amaliy xizmat qiladi. Bunda quyidagi usullardan keng foydalaniladi:

Rolli o'yinlar;

Dramatizatsiya va sahnalashtirish;

Dialog va monolog asosidagi mashg'ulotlar;

Erkin ijodiy muhokamalar va debatlar.

Yuqoridagi metodlar bo'lajak o'qituvchilarning dars jarayoniga chuqurroq kirib borishi, qiziqishini oshirish, bilimlarini amalda qo'llash va ijtimoiy bilim va ko'nikmalarni yuzaga chiqarish imkonini yaratadi. Yuqoridagi metodlarni qo'llash orqali bir qancha yutuqlar bilan bir qatorda ba'zi bir muammolarga ham duch kelish mumkin, ya'ni u o'quvchilarning analistik fikrlashini, muammolarni hal qila olish ko'nikmalarini va shaxsiy o'sishni qo'llab-quvvatlashi bilan ayni vaziyatda uni amalga oshirish uchun yetarli resurslar, malakali o'qituvchilar va innovative ta'lism metodlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lism muassasasining moddiy bazaviy tomonlari bilan bevosa bog'likni talab etadi. Bo'lajak filologlar o'z darslari mobaynida teatr pedagogikasidan foydalanib dars tashkillashda quyidagi bosqichlarni navbatma- navbat amalga oshirishlari maqsadga muvofiq:

Bunda teatr pedagogikasidan samarali foydalanish uchun oldin reja tuzib olish va tayyorlov ishlari amalga oshiriladi.

Maqsad va vazifalarni belgilash: Ta'lism dargohining o'quv rejasiga muvofiq teatr pedagogikasi maqsadlari aniqlanadi. Misol uchun, o'quvchilarning nutq madaniyatini oshirish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish, muloqotga o'rgatish.



Material tayyorlash: Dramatik asarlar, sahna materiallari va teatr o'yinlari uchun zarur bo'lgan resurslar tanlab olinadi.

O'quvchilarni tanlash: Ijodiy jarayonga qiziquvchi o'quvchilar yoki obrazlarga mos tushuvchi barcha ishtirokchilar jamoasi tashkillanadi.

O'qituvchilarni tayyorlash: Teatr pedagogikasida faoliyat olib boradigan pedagoglarga metodik tavsiyalar va ko'mak beriladi, zaruriy treninglar tashkillanadi.

Jarayonni boshlash: Bu bosqichda teatr pedagogikasi amalda qo'llanila boshlaydi.

Ijodiy muhitni yaratish: O'quvchilarga erkin va ijodiy muhitni rag'batlantiruvchi sharoit yaratiladi. Buning uchun teatr muhitiga xos joylar( masalan, kichik zallar yoki mashg'ulot sahnalari) tashkillanadi.

Motivatsiya va ishtirokni rag'batlantirish: O'quvchilarning teatr san'atiga bo'lgan muhabbatini yanada oshirish maqsadida ulargateatrning qiziqarli tomonlari tushuntiriladi va ilhomlantiriladi, so'ngida turli usullar bilan e'tirof etiladi.

## XULOSA

Dars jarayonlarida teatr pedagogikasidan o'rinali foydalanish o'quvchilarni baddiy asarlarni o'rganish bilan bir qatorda ijodkorlik, muloqot hamda ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu yondashuv darsni qiziqarli va samarali o'zlasjtirishga zamin yaratadi, shuningdek o'quvchilarning shaxsiy va madaniy kamol topishiga katta hissa qo'shami. Shu boisdan, teatr pedagogikasini filologik fanlarda keng qo'llash ayni muddaodir. Demak, teatr pedagogikasini adabiyot darslarida keng joriy etish orqali o'quvchilarning badiiy saviyasini oshirish, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ulkan hissa qo'shami.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Abdullayeva, D. (2021). Teatr pedagogikasining didaktik imkoniyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Hasanov, Sh. (2019). Adabiyot ta'limalda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti.
3. Karimova, N. (2020) "Adabiyot darlarida teatr usullarini qo'llashning afzalliklari". Ta'lim innovatsiyalari jurnali, 4(3), 45-50
4. Xudoyerberdiyev, B. (2017). Teatr pedagogikasining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni. Pedagogika va psixologiya jurnali, 6(2), 23-28



5. Vygotskiy, L. (1987) Imaginatsioya va ijod pedagogik jarayonda. Moskva: Pedagogika nashriyoti.